

*Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq  
ta’limi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: Hakimova Muyassar Rashidovna  
Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi  
kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya** Mazkur maqolada insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik huquqlarining ta’minlashi natijasida jamiyat va davlat taraqqiy etishi qisqacha ohib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiya, inson, huquq, jamiyat, davlat, erkinlik, ta’lim, tarbiya.

### Kirish

Insoniyatning uzoq tadrijiy taraqqiyoti jarayonida oila, xalq, millat, jamiyat va davlat paydo bo‘lgan. Bu ijtimoiy tuzilmalar soddalikdan murakkablikka qarab rivojlanib borgan. Yuqoridaq mavjud subyektlar doimo boshqaruvga ehtiyoj sezadi. Ularning xatti-harakatlarini huquqiy tartibga solish, huquq va erkinliklariga daxl qilinmasligi uchun qat’iy belgilangan qonunchilik tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Ushbu qonunchilikning yuqori bosqichida konstitutsiya turadi desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Konstitutsiyaning inson, jamiyat va davlat faoliyatidagi ahamiyati haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday fikrni bayon etgan: “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir”<sup>1</sup>. Inson baxt-saodati, farovonligi va jamiyatning osoyishtaligi bevosita davlatning asosiy qomusi normalarining ta’sirchanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Konstitutsiya milliy qonunchiligidan poydevori bo‘lib, hamma kodekslar, qonunlar, huquqiy hujjatlar, qonunosti hujjatlari ushbu qonunga asoslanadi. Konstitutsiya faqat inson huquq va manfaatlaridan iborat bo‘lmay, balki, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning chegarasini ham belgilab berishi bilan izohlanadi. O‘zbekiston mustaqilligining qonuniy kafolati sifatida 1992-yil 8-dekabrda konstitutsiyamiz qabul qilindi. Bu mamlakatimiz tarixidagi muhim tarixiy sana bo‘ldi. Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz haqida “Xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda

<sup>1</sup> Karimov I.A Inson baxt uchun tug‘iladi. – T.:”Sharq”. 2001, 37-38 bet

demokratik davlat va fuqorolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”<sup>2</sup>, - degan edilar. Konstitutsiya xalqimizning mustabid tuzum davrida toptalgan huquq va erkinliklarini tiklashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat organlari, mansabdar shaxslarning fuqarolar oldidagi ma’suliyati e’tirof etilib, o‘z o‘rnida fuqarolarning ham jamiyat va davlat bilan munosabatlarida burchli ekanligi qayd etildi.

Ijtimoiy jarayonlarni bir me’yorda saqlab turishning imkonini mavjud emas. Vaqt o‘tgan sayin ijtimoiy jarayonlarda ham o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘ladi. Bu esa inson va jamiyat hayotida yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Shunday ekan, davlat boshqaruvini takomillashtirib, uni inson manfaatlariga moslashtirib borishda qonunlar ham isloh etilib, jamiyat taraqqiyotiga yangicha andozada yaratilishini taqazo etadi. Shunday jarayonlarning tasdig‘i sifatida Konstitutsiyaviy islohatlar o‘tkazishni zaruriyatga aylantirib qo‘ydi. Shu sabali ham asosiy qonunimiz qabul qilingandan buyon 2023-yilgacha 15 marotaba o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish maqsadida konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Bu safargi konstitutsion islohotlarning ko‘lami kengroq bo‘lganligi uchun asosiy qomusimizni yangi tahrirda qabul qilish lozim topildi. Mamlakatimizda yangi tahrirdagi konstitutsiya loyihasi xalq muhokamasi uchun taqdim etildi. 2023-yil 30-apreldagi o‘tkazilgan referendum natijasida fuqarolarimiz tomonidan ma’qullandi va 1-may kunidan qonunan kuchga kirdi.

Konstitutsiyamizning matniga 65 foiziga o‘zgartirish kiritilib, oldin e’tirof etilmagan ko‘plab normalar kiritildi. Jumladan yangi tahrirdagi konstitutsiya Yangi strategik tamoyillarni ham qamrab olgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirildi<sup>3</sup>. Konstitutsiyamizning asosiy vazifasi ham inson hayotida farovonlikni ta’minlashda davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlarining tashabbuskorligini oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Fransuz ma’rifatparvari Monteskyening fikricha, huquqiy davlatga siyosiy qonuniylik va xavfsizlikni qaror toptirishga, hokimiyatni bir-birini cheklab muvozanatga solib turuvchi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘lish yo‘li bilan erishiladi. Zero huquqiy davlat suveren bo‘lgan xalqning irodasiga bog‘langach, “faqat millat chinakam suverendir. Faqat xalqgina chinakam qonun chiqaruvchi bo‘la oladi. Faqat xalq irodasigina siyosiy hokimiyat hisoblanadi”<sup>4</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda konstitutsiyaviy islohatlarni amalgalashishda iqtisodiy faoliyat erkinligi masalalari o‘rganishda induktsiya va deduktsiya, analiz, sintez, qiyosiy tahlil, ilmiy mulohazalar berilgan. Tahlil va natijalar

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”.2018.3-tom.58-bet.

<sup>3</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/Yangi-O'zbekiston-inson-jamiyat-davlat-konsepsiyasining-jamiyat-hayotidagi-o'rni>

<sup>4</sup> История политических учений. – М.: Политиздат, 1971

**Tahlil va natijalar.** Har qanday adolatli qonun taraqqiyotga xizmat qiladi. Qonun qat’iy kuchga ega bo’lsa jamiyat yangi bosqichga ko’tarila oladi. Bu esa insonlar hayot tarziga ijobjiy o’zgarishlar olib kirib, ularni davlat va mansabdor shaxslar faoliyatidan mammunlik hissini kuchaytiradi. Bu jarayonlarni amalga oshirish qonuniylik, qonun oldida tenglik kabi tamoyillarning davlatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlardagi tutgan o’rni bilan belgilanadi.

Qonuniylik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklar, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma’suliyat ustuvor bo’lmasa, qonun va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo’lmaydi<sup>5</sup>. Qonuniylik bu qonunga og‘ishmay rioya qilishda ifodalnadi. Har bir davlatning va davrning o‘z qonuni bo‘lishi kerakligi masalasi antik davrda ham mavjud bo‘lgan. Qonun yetarli kuchga ega bo’lmasa, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetishi tabiiydir. Mashhur yunon faylasufi Platon fikricha “Qonun yo‘q joyda davlat tanazzulga uchraydi”<sup>6</sup>. Bu yerda aynan qonun kuchining yetarli emasligi nazarda tutilgan. Shu holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham mamlakatimizda jamiyat taraqqiyotiga moslab qonunlar qabul qilinishi o‘rnlidir.

Hech kim insonning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitishga, uni toptalishiga qaratilgan xatti-harakat qilishga haqli emas. Shaxsni haqorat qilish, u haqida yolg‘on uydirmalar tarqatganlik uchun davlat ta’sirchan choralarni qo‘llay oladi. Bu borada shunday g‘ayriqonuniy holatlarning oldini olish bo‘yicha 2023-yil 11-aprelda ham Xotin qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, shafqatsizlik va zo‘ravonliklarning oldini oldini olish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aybsizlik prezumpsiyasi qoidasining yanada insonparvarlashganini, fuqarolarning malakali yuridik yordam olish huquqini alohida bir moddada belgilanishi, sodir etilgan aybli qilmish uchun takroran hukm qilinishi mumkin emasligi kabi normalar kiritilishi tabiiy huquqlarimizni yanada mustahkamladi.

Fuqarolar siyosiy huquqlaridan foydalanib, saylovlarda qatnashishlari, munosib nomzodlarni saylashlari, o‘zları ham bevosita hokimiyat organlariga nomzod sifatida saylanishlari mumkin. Shuningdek, fuqarolarning siyosiy huquqlari ularga turli xil muammolar yuzasidan shikoyat, taklif, iltimos mazmunida murojaat qilish huquqlarini yanada mustahkamlaydi.

Fuqarolar faqat shaxsiy va siyosiy huquqlar bilan mukammal huquqlarga ega bo‘la olishmaydi. Ularning iqtisodiy huquqlari bu huquqlar safida yetakchilik qiladi. “Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakka aytilur,<sup>7</sup>-deb yozadi ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy. Iqtisodiy huquqlarsiz shaxslarni ijtimoiy

<sup>5</sup> Каримов.И.А.. «Ўзбекистон-келажаги буюқ давлат».-Т.: «Ўзбекистон». 1992. 38-6.

<sup>6</sup> Yo’ldoshev S.A Antik falsafa , T.: 2006.126-b

<sup>7</sup> Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёки ахлоқ.-Т.: «Ўқитувчи». 1992. 33-6.

munosabatlarning subyekti sifatida baholash mushkul. Jumladan, har bir shaxsning muldor bo‘lish huquqiga egaligi, fuqaro sifatida xohlagan banklarimizga omonat qo‘yishimiz, mulkni meros qilib olishimiz hech qanday to‘sinqinliklarsiz huquqlarmizni amalgga oshirishimizga imkon beradi.

Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohada amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalari bilan bog‘liq normalar 3 barobarga ko‘paytirildi hamda ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilandi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj qatlamini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalari hamda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini o‘rnatishda insonning kam-ko‘stsiz hayot kechirishini ta’minlash e’tiborga olinishi belgilandi.

Ikkinchidan, davlat fuqarolarning ish bilan bandligini ta’minlashi, ishsizlikdan himoya qilishi, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha majburiyatlari Konstitutsiya normasi darajasiga ko‘tarildi.

Uchinchidan, fuqarolarning malakali tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlari mustahkamlab qo‘yildi hamda davlatning barcha ta’lim sohalariga birdek e’tibor berishi, xususan, inklyuziv ta’lim sifatini rivojlantirishi hamda o‘qituvchi maqomini yuksaltirishga doir normalar mustahkamlandi.

Yosh avlod tarbiyasi har bir davrda muhim vazifa bo‘lib kelgan. Yoshlarning iqtidori, salohiyati, axloqiy tarbiyasiga qarab shu yurtning istiqboli belgilanadi. Ayniqsa, bugungi kunda yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etishdek ulkan vazifani amalga oshirishda yoshlar ta’lim-tarbiyasining huquqiy kafolati bo‘lmog‘i darkor.

Ta’limni rivojlantirish konstitutsiyamizda mustahkamlanar ekan, yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk, komil inson etib tarbiyalash bu borada eng muhim vazifadir. Keng qamrovli, har tomonlama bilimga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash yurtimiz islohotlarining markazida ekanligini ham unutmasligimiz, shunday imkoniyatlardan foydalanib jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishimiz kerak. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg‘otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, g’ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.<sup>8</sup> Yoshlarni puxta bilimlarni egallahlarida pedagog o‘qituvchilarining o‘rni alohida ehtiromga loyiq. Yangilangan konstitutsiyamizda o‘qituvchilar faoliyatining huquqiy kafolati, ularning jamiyat rivojlanishida eng katta mas’ul shaxs ekanliklariga urg‘u berilgan. 52- moddasi ikkinchi qismida Davlat o‘qituvchilarining sha’ni va qadr -qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘grisida g‘amxo‘rlik qiladi deyilgan. Bu modda mohiyatini

<sup>8</sup> R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova ,M.K.Shirinov, S.Hafizov.” Umumiy pedagogika “ Toshkent – 2018

chuqur his qilgan har bir pedagogning o‘z kasbiga yanada mehr muhabbati oshadi. Qolaversa, jamiyatdagi har bir shaxsning o‘qituvchilarga nisbatan yangicha nigohda qarashlariga, ularning munosib mehnatlarini qadrlashga o‘rgatadi. O‘qituvchilarning bilim va malakalarini xalqaro baholash tizimlari orqali tekshirishga qaratilgan TALLIS dasturi ham yurtimizda 2024-yildan boshlab yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa yana ham ilm-fanni taraqqiy ettirishda zarur metod vazifasini o‘tashi ehtimoldan xoli emas.

**Xulosa va takliflar.** Yangi konstitutsiya – biz fuqarolarning munosib hayot kechirishimizning garovi, huquqiy himoyasining yanada ishonchli kafolatli, xalqaro andozalarga moslab yaratilgan eng muhim qomusimizdir. Ushbu qonunga asoslanib insonlar taqdiri hal etiladi, yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladi. Ishonamizki, bu qonun yurtimizdagи milliy qonunchilik tizimini yanada taraqqiy ettirishda o‘z davrining eng mukammal qonunchiligi yaratilishida va shu qonunlarga asoslanib adolatli jamiyat qurilishida muhim fundament vazifasini o‘taydi. Yangi O‘zbekistonni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin oilishida muhim qonun bo‘ladi. Konstitutsiyaviy tuzatishlar, avvalambor, jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga mansub bo‘lgan fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik huquqlari hamda manfaatlarini ta’minlashga, himoya qilishga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan normalarga aylanadi. Konstitutsiyaga tuzatishlar fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini, xususiy mulkchilikni, iqtisodiy faoliyatning erkinligini himoya qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda:

- davlat tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni, shart-sharoitlarni ta’minlashi, iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilandi;

- tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlandi;

- yer qonunda nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi mustahkamlandi;

- davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqliligi, uning ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar albatta butun xalqimiz irodasini o‘zida mujassam qilib, ularning xohish va irodalarini ifoda etdi. Xalqaro umum e’tirof etilgan normalar va boshqa ko‘plab oliy maqsadlar qo‘yilgan. Kelgusi referendum jarayonjlariga xalqimiz tayyor turishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasini Yangi Konstitutsiyasi T. 2023
2. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”.2018.3-tom.58-bet.
3. Falsafa: Qomusiy lug‘at (tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq” , 2004 , 68-bet.

4. Karimov I.A Inson baxt uchun tug‘iladi. – T.:”Sharq”. 2001, 37-38 bet
5. Karimov.I.A.. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992. 38-bet
6. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”.2018.3-tom.58-bet.
7. R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova ,M.K.Shirinov, S.Hafizov.” Umumiy pedagogika “ Toshkent – 2018
8. Yo‘ldoshev S.A Antik falsafa , 126-bet
9. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёки ахлоқ.-Т.: «Ўқитувчи». 1992. 33-6.
- 10.История политических учений. – М.: Политиздат, 1971
- 11.[https://cyberleninka.ru/article/n/Yangi\\_O'zbekiston\\_inson\\_jamiyat\\_davlat\\_konsepsiyasining\\_jamiyat\\_hayotidagi o'rni](https://cyberleninka.ru/article/n/Yangi_O'zbekiston_inson_jamiyat_davlat_konsepsiyasining_jamiyat_hayotidagi_o'rni)
- 12.Hakimova, M. (2025). Ikkinchи jahon urushi davrida Surxon vohasi ayollarining maorif va madaniyat sohasiga qo ‘shgan munosib hissalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(6).